




# QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018-yilning yanvar-sentyabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot(xizmat)larining umumiy hajmi 4677,1 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan (104,5 foizni), shu jumladan yalpi dehqonchilik mahsulotlari 2714,8 mlrd.so'mni (101,9 foiz) yalpi chorvachilik mahsulotlari, 1884,7 mlrd.so'mni (109,0 foiz) qishloq xo'jaligida ko'rsatilgan xizmatlar xajmi 56,5 mlrd.so'mni (104,5 foiz), baliqchilik xo'jaliklarida 13,8 mlrd.so'mni (102,2 foiz), ovchilik xo'jaligida 0,2 mlrd.so'mni (125,0 foiz), o'rmonchilik xo'jaliklarida 7,1 mlrd.so'mni (103,5 foizni) tashkil qildi.

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Farg'ona tumani (115,2 foiz), Uchko'prik (111,0 foiz), Rishton (108,7 foiz), Qo'shtepa (107,0 foiz) tumanlarida kuzatildi. Sox tumanida (80,3 foiz), Farg'ona (99,5 foiz) va Quvasoy (95,8 foiz) shaharlarida, Quva (98,7 foiz), tumanlarida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

## Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Oltiariq tumanining ulushi 8,0 foizni tashkil etdi va hududlar bo‘yicha etakchilik qilmoqda, Beshariq va Rishton tumanlari mos ravishda 6,9 foiz va 6,5 foiz ko‘rsatkich bilan keyingi o‘rinlarni egalladi. Eng kam ulush So‘x (2,2 foiz), Qo‘qon (2,3 foiz), Marg‘ilon (2,9 foiz), Yozyovon (3,8 foiz) va Farg‘ona (3,6 foiz) shaxarlarida qayd etildi

### Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari


2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining o‘shishi 2017-yilning mos davriga nisbatan 104,5 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 101,9 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 109,0 foizni tashkil qildi.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 72,5 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 24,8 foizi – fermer xo'jaliklariga, 2,7 foizi – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

## Dehqonchilik

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 2714,8 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,9 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 59,0 foizni tashkil qildi.



**Hosilni yig'ib olish.** 2018-yilning yanvar – sentyabr oylarida 217,9 ming tonna (89,3 foiz) kartoshka ishlab chiqarildi, 835,7 ming tonna (110,0 foiz) sabzavotlar, 62,7 ming tonna (98,0 foiz) oziqbop poliz, 294,6 ming tonna (91,0 foiz) meva va rezavorlar, 106,0 ming tonna (107,8 foiz) uzum yig'ib olindi. Bundan tashqari 540,9 ming tonnadan ortiq don ekinlari ishlab chiqarildi.

## Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi



Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida kartoshka umumiy hajmining 95,0 foizi, sabzavotlarning 87,9 foizi, meva va rezavorlarning 54,2 foizi ular tomonidan ishlab chiqarildi. Don ekinlarining esa asosiy qismi fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarildi, ishlab chiqarilgan ushbu mahsulot hajmining 83,5 foizi ular hissasiga to'g'ri keladi.

## Chorvachilik




2018-yilning yanvar-sentyabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1884,7 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 109,0 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 41,0 foizni tashkil etdi.

2018-yilning yanvar-sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar

tomonidan tirik vaznda 117,3 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar-sentyabrga nisbatan 9,1 foizga ko'p), 699,4 ming tonna sut (7,9 foizga), 377,3 mln.dona tuxum (16,1 foizga), 1005 tonna jun (2,5 foizga) ishlab chiqarildi.

### Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi



Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 89,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 96,0 foizi, tuxumning 73,4 foizi, junning 95,3 foizi ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.



Pillachilik soxasini rivojlantirishda davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar berilishi, ilg'or texnologiyalarni qo'llanilishi, klaster usuliga o'tish xamda viloyatda takroriy pilla etishtirishni yo'lga qoyilishi xisobiga 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida viloyat bo'yicha jami 1656,6 tonna miqdorida pilla xom-ashyosi etishtirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 192,8 foizni tashkil etdi.




Viloyatimizda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish xajmlarini ko'paytirish, xususan ichki va tashqi bozorlarni arzon va sifatli baliq mahsulotlari bilan to'ldirish bo'yicha viloyatda 270 dan ortiq baliqchilik xo'jaliklari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib ular tomonidan joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarida 3529,0 tonna miqdorida baliq ovlanib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,8 foizni tashkil etdi.

### **Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni**

2018-yilning 1 ortyabr holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 997,8ming boshga, shu jumladan sigirlar – 343 ming boshga, qo'y va echkilar – 828,7 ming boshga, parrandalar – 6482,3 ming boshga etdi.

2017-yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 10,1 ming boshga (1,0 foizga), shu jumladan sigirlar – 18,1 ming boshga (5,0 foizga), qo'y va echkilar – 6,1 ming boshga (0,7 foizga) kamayib, parrandalar – 747,3 ming boshga (13,0 foizga) ko'paydi.

## Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi



2018-yining 1 oktyabr holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,8 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 94,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,2 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 4,9 foizi fermer xo'jaliklariga, 94,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 9,2 foizi fermer xo'jaliklariga, 65,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 25,8 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

mas'ul shaxs: Yakhyojon Esonmirzaev

• 0 (373) 241-72-42